

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDOSHUVNI AMALGA OSHIRISHNING MAZMUNI

*Muxammadiyeva X. K. - Nizomiy nomidagi TDPU “Boshlang‘ich ta’lim” fakulteti
boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrası v.b.dots*

Yusupova G Quvondiq qizi. - Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Abdulaxadova R. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda fanining o‘qitish jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish va uning metodologiyasi haqida so‘z yuritilgan.

Tayanch so‘z va tushunchalar: o‘qitish metodi, ta’lim texnologiyalari, verbal muloqot, ta’lim jarayoni, shaxs, didaktika.

В статье освещены место и значение использования дидактико-игровых образовательных педагогических технологий, а также методика их применения в процессе обучения природоведению в начальных классов.

Ключевые слова и понятия: метод обучения, образовательные методы, вербальное общение, процесс обучения, личность, дидактика.

Keywords: In the article is lightened the place and importance of didactic game educational technologies implementation in teaching of nature studies in the primary classes and its methodics in the teaching process. teaching method, educational methods, oral speech, teaching process, personality, didactics.

Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida boshlang‘ich ta’limni isloh qilish, komil insonni tarbiyalash, ularga zamonaviy ta’lim berish masalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo hisoblanadi. Aynan, boshlang‘ich ta’lim didaktik jarayonlarda bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta’minlash muhim va zaruriy bo‘lib hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. U bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga qiziqishni shakllantirish maqsadini ko'zlagan holda, yetti yoshgacha oilada hamda davlat va nodavlat boshlang'ich ta'limga olib boriladi. Boshlang'ich ta'limning maqsad va vazifalarini tatbiq etishda jamoat va homiy tashkilotlari, mahalla, xalqaro fondlar faol ishtirok etadilar. Boshlang'ich ta'limbolaning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uning jismoniy va psixik rivojlanishini ta'minlovchi, uni uzluksiz ta'limning keyingi bosqichi har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir. O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni isloh qilishning asosiy omillaridan biri komil inson tarbiyasida "shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi" masalalaridir. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda "Boshlang'ich ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ 595-son Qonuni¹ [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi [11], PF-4947-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrda "Boshlang'ich ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son Qarori[10], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori[9], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 mayda "Boshlang'ich ta'lim faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 391-son Qarori[7], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Boshlang'ich ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-son Qarorlarida ifoda etilgan boshlang'ich ta'lim jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan "shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi" g'oyalarning muhim ahamiyati ko'rsatib berilgan. O'zbekistonda shaxs manfaatlari va ta'lim ustuvorligi mamlakatimizning ravnaqiga ravnaq qo'shuvchi davlat siyosati darajasidagi masaladir.

¹ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 16 декабрдаги "Бошланғич таълим ва тарбия тўғрисида"ги ЎРҚ 595-сон Қонуни

Ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz ta'lim tizimi har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Uzluksiz ta'lim deganda – o'quvchi shaxsini uzviy rivojlantirish maqsadida har bir ta'lim bosqichida pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro muvofiqligi, istiqbolga yo'naltirilganligi tushuniladi[38]. 2020 yil 23 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 637-sonli Qonunining qabul qilishini mavzuning dolzarbligini belgilaydi[2].

Boshlang'ich ta'limda pedagogik jarayon – ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, pedagog faoliyat ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan tizimdir. Bu tizimni boshqarishda va uning sifatini yuqori pog'onaga yuksaltirishda yangi yo'llarni topish, ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda boshlang'ich ta'lim faoliyatini monitoring qilish, O'qituvchi kadrlarning salohiyatini oshirish, o'quvchilarda shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirish, boshlang'ich ta'lim sohasida bolalar qamrovini oshirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim didaktik jarayonlarda bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta'minlovchi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirish vazifalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, bolalarni maktab, o'quvchilarning intellektual, ruhiy, estetik, jismoniy, ma'naviy rivojlanishini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish ehtiyoji sezilmoqda[31]. Har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirish masalasining ko'p qirrali va murakkabligi hozirgi zamon tarbiya nazariyasi va amaliyoti uchun muhimligini ko'rsatib beradi. Bu vazifani pedagog kadrlar mahorati, ularning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko'nikma va malakasi, maxsus bilimisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu borada maktablarda faoliyat ko'rsatayotgan pedagogik kadrlarning kasbiy kompetentligini xam oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Aqlli, zakovatli, ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalay olsakgina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha

olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi»[26]. Bu esa, hozirgi vaqtda boshlang'ich ta'lim tizimida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda jahon andozalariga mos holatda tayyorlash, ularning malakasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, boshlang'ich ta'limni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri - buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab etadi. Hozirgi davrning talabi bu-boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqan va ma'nau yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishni talab etadi. Boshlang'ich ta'lim didaktik jarayonlarda bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishini ta'minlovchi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni takomillashtirishda ta'lim tashkilotchining Davlat o'quv dasturlarini tahlil qilish, ularning sifatini oshirish, shu asosda boshlang'ich ta'lim tashkilotlari o'qituvchilari bilim, ko'nikma va malakasini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish, o'quvchilarning aqliy, jismoniy, ma'naviy, estetik rivojlanishlarini ta'minlash zarurdir.

Ta'limning tarbiyaviy maqsadi – bola ehtiyojlarini tarbiyalash, pedagogik nuqtai-nazarni tadbiq etish (kattalar tomonidan boshqarilayotgan jamoaviy faoliyatda bola tomonidan o'zining shaxsiy kechinmalari orqali “ahloqiy bosqichlar”ni bosib o'tish yo'li). Tarbiyaviy maqsadning mazmuni shundaki, bolada ahloqiy qadriyatlar tizimi, dunyoga hissiy-baholovchi munosabat shakllanadi. Ta'limiy maqsad shundan iboratki, bola ta'lim jarayonida o'zining aqliy ehtiyojlarini qondirib, uni o'rab turgan haqiqatni anglab boradi. Ta'limning tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi, amaliy maqsadlari o'qitishning munosib vosita, usul va uslublarini tanlash sharti bilan tadbiq etiluvchi va uslubiy tamoyillarni belgilovchi asosiy faktor bo'lib xizmat qiladi. Xulosa Mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayoniga oid shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy qilish ijtimoiy zarurat hisoblanadi. Bu ko'rsatma va ma'lumotlarni amalda qo'llash bugungi kunda boshlang'ich ta'lim sinflari muammolari bilan shug'ullanuvchi barcha O'qituvchi-o'quvchilari uchun nihoyatda muhim va dolzarb vazifadir. Ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qonun-qoida tamoyil, metod va usullarni bolalar bog'chalari amaliy hayoti

bilan bog‘lab, muammolarni hal qilish alohida ahamiyatlidir. Bunda boshlang‘ich ta‘lim sinflarida oila bilan uzviy hamkorlikda bolalarni har tomonlama rivojlantirish ishini amalga oshirish, bunday vazifalarni tadqiq etish ham muhimdir. Chuniki, bu vazifalar birinchidan, bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlashga, intellektual, ruhiy, estetik, jismoniy rivojlanishini ta‘minlashga, ikkinchidan, ilmga qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga, uchinchidan, Vatanga, tabiatga muhabbatni shakllantirishga xizmat qiladi. Xullas, boshlang‘ich sinflarda fanni o‘qitish jarayonida foydalaniladigan didaktik o‘yinli darslarning quyidagi afzalliklari mavjud: - o‘quvchilar didaktik o‘yinli darslarga katta qiziqish bilan tayyorgarlik ko‘radilar, natijada yangi bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligi sifatli bo‘ladi; - didaktik o‘yinli darslar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ilk bor kasb tanlashida o‘z kuchi, bilimi, iqtidorini sinab ko‘rishda, uningdek, ularni hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, boshlang‘ich sinflarda fanning o‘qitishda yoshga xos xususiyatlarni e‘tiborga olgan holda ta‘limning zamonaviy shakl va metodlarini takomillashtiruvchi o‘quv-metodik qo‘llanmalarni yaratish; - xalq ta‘limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlarida o‘quvchilarning nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarini yanada takomillashtirish maqsadida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining zamonaviy bilim, ilmiy-metodik tayyorgarligini keltirilgan uslubga ko‘ra takomillashtirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Berdieva O. Ta‘lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar. // «Xalq ta‘limi»jurnali, 2003, 1-son. –16-b.
2. Zikiryaev A. va boshqalar. O‘quvchilar bilimini tekshirishda innovatsion texnologiyalar. // «Xalq ta‘limi» jurnali, 2001, 6-son. –19-b.
3. Nishonaliev U. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari muammolari va yechimlari. // «Pedagogik ta‘lim» jurnali, 2000, 3-son. –11-b.
4. Norbutaev X. Mejpredmetnye svyazi pri obuchenii prirodovedeniyu. // «Nachalnaya shkola». M., 2011, № 11. –S. 25.
5. Safarova R., Shermatov L. Pedagogikaning taraqqiyot yo‘li. // «Xalq ta‘limi» jurali, 2002, 2-son. –14-b.
6. Xolmetov M. Tarbiyada didaktik o‘yinlarning ahamiyati. // «Ma‘rifat».
7. Hayitov, A. I., & Miltikboyeva, Z. (2022, May). Methods of organization of native language classes in primary classes on the basis of interactive methods. In *E Conference Zone* (pp. 11-13).

8. Anvar, H. Integrated Approach to Improving Pedagogical Abilities of Future Primary Education Teachers. *JournalNX*, 197-201.

9. Мухаммадиева, Х. К., & Исматуллаева, Ф. Р. (2022). БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ДИДАКТИК ЖАРАЁНДА БОЛАНИНГ РИВОЖЛАНИШИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-ПЕДАГОГИК ТАҲЛИЛИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(2), 77-82.

10. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 10-14.

11. Эргашева, Г. М., Мухаммадиева, Х. К., & Артикбаева, Н. Н. (2021). Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. *Science and Education*, 2(5), 578-582.

12. Muhammadiyeva, K. (2020, June). The Idea “Personal Interests and the Priority of Education” in the Education as One of the Key Factors in Reforming School Education for Upbringing Perfect Individual. In *Proceedings of International Multidisciplinary Scientific-Remote Online Conference on Innovative Solutions and Advanced Experiments* (p. 22).

13. Абдуллаева, Ш. А., & Мухаммадиева, Х. К. (2016). Девиант хулқли илк ўспирин ёшидагиларни ижтимоийлаштириш ва профилактика ишларини олиб бориш. *Современное образование (Узбекистан)*, (11), 48-53.

14. Мухаммадиева, Х. К. (2014). Начальные сведения о развитии арифметики в трудах учёных математиков Востока. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (3-2), 230-231.

15. Tuxtayevna, H. M., Mahkambayevna, E. G. Z., & Karamatovna, M. X. Methodological Bases of Development of Socially Active Competencies of Future Primary School Teachers in Students and Improvement of Its Methodology. *International Journal of Health Sciences*, (II), 10646-10654.

16. Norboy o'g'li, H. F. (2023). Umumiy o'qitish muassasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish: 1-SON 1-TO'PLAM IYUL 2023 yil. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 1(1), 276-281.

17. Inoyatova, Z., Karomatova, D., Adilova, M., & Khakimov, F. Improving the mechanisms of using digital technologies in the management of general secondary education institutions.

18. Hayitov, A., & Abdurasulova, F. (2022). Interfaol metodlar asosida boshlang'ich sinflar darslarini samarali tashkil etish usullari. *Science and innovation*, 1(B7), 598-604.

19. Hayitov, A., & Azizova, S. (2022). Abu nasr farobiyning “fozil odamlar shahri” asari-bugungi kun yoshlarining ma'naviyat maktabi sifatida. *Science and innovation*, 1(B7), 432-438.

20. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida ekologik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. *Science and innovation*, 1(B7), 1009-1015.

21. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdieva, S. (2022). VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 72-77.

22. Abrorkhonova, K., & Khudoyberdiyeva, S. (2022, June). ORGANIZATION OF EXCURSIONS IN PRIMARY SCHOOL CLASSES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 139-143).

23. O'ktamovna, U. G. (2022). Ekologik-valeologik madaniyatni rivojlantirish muammolarini tadqiq etishga nisbatan metodologik yondashuvlar. *Conferencea*, 40-44.

24. Akhmedova, M., et al. "Primary classes based on media technologies represent an international rating system for teacher control." *International Journal of Psychosocial Rehabilitation* 24.4 (2020): 3872-3885.

25. Khamdamovna, I. Z., R. Kamola, and J. Nigora. "Problems and Solutions for the Organization of Pedagogical Communication in the Educational Process of Future Primary School Teachers." *European Multidisciplinary Journal of Modern Science* 4 (2022): 413-416.

26. Inoyatova, Z. X., Po'Latova, G. N., & Xojimurodova, D. (2022). Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. *Science and Education*, 3(12), 795-800.